



TA'LIM JARAYONINI PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA TASHKIL ETISH DAVR TALABI

**Ro'zmetova Moxira Qodirberganovna
Rustamova Xosiyat Erkinovna**

Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumani 17-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchilari

Annotatsiya: *Ta'lism tarbiya mazmuni ,maqsad va vazifalari davrlar o'tishi bilan kengayib borishi natijasida uning shakl va usullari ham takomillashib bormoqda. Hozirda inson faoliyatining asosiy yo'nalishlari ulardan ko'zda tutilgan maqsadlarni to'liq amalga oshirish imkoniyatini beruvchi yaxlit tizimlar, ya'ni texnologiyalarga aylanib bormoqda.*

Ushbu maqolada ta'lism tarbiya jarayonini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilish, o'quvchilarda o'qish motivlarini rivojlantirishda didaktik o'yinlarning ahamiyati, o'quvchilarning saviyasi va qiziqishlarini hisobga olgan holda didaktik jarayonni loyihalash haqida atroflicha yoritilgan.

Kalit so'zlar: *pedagogik texnologiya, texnologik yondashuv, didaktik o'yinlar,didaktik jarayonni loyihalash, motivlar.*

O'tgan yillarimizga nazar tashlab, ularni sarhisob qilsak mustaqilligimiz sharofati bilan ta'limga yangicha yondashuv zarur ekanligini chuqur anglagan holda eski usullardan voz kechib, ta'lism sohasini tom ma'noda qayta qurish uchun ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar olib borildi.

„Ta'lism to'g'risida“ gi Qonun va „Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi“ , Davlat ta'lism standarti, O'quv dasturlari ishlab chiqildi. Ularda belgilangan Davlat talablari asosida yangi o'quv darsliklari nashr etildi. Pedagogik texnologiyadan foydalangan holda ta'lism- tarbiya jarayonini AKT va didaktik materiallar asosida tashkil qilishga katta e'tibor qaratildi. 2014-yildan elektron darslar ya'ni multimediali ilovalar yaratildi va ulardan foydalangan holda pedagogik texnologiya asosida ta'lism jarayonini tashkil etish davr talabiga aylandi.

Xo'sh pedagogik texnologiya nima?

Pedagogik texnologiya bu-o'quvchilar qobiliyati, imkoniyati va ehtiyojlarini hisobga olgan holda, ta'lism shakllarini amalga oshirish uchun ko'zlangan natijaga erishishda eng qulay yo'l va usullarni tanlash va ishlab chiqish mahoratidir.

Darhaqiqat, ilg'or pedagogik texnologiyalar ta'lism jarayoni unumdorligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, tafakkurini rivojlantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin



foydalananish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi, bilimdan-bilimga tomon yetaklaydi.

Shuning uchun ham ta'lism ishiga texnologik yondashuv katta ahamiyatga ega.

Ta'lism ishiga texnologik yondashuv:

- ta'lism jarayoni maqsadini aniq belgilash;
- o'qish-o'qitish jarayonini uzviy bog'liq bosqichlar, fazalar, amallarga ajratish, bo'lish;
- ta'lism jarayonida mo'ljallangan natijaga erishish uchun bajariladigan harakatlarni muvofiqlashtirish, ketma - ket, bosqichma -bosqich amalga oshirish;
- loyihalashtirilgan ishlar ,amallarning barchasini bir xil bajarishni nazarda tutadi .

Pedagogik texnologiyada ta'lism jarayonining maqsadini belgilash muhim bo'lib , u rejalashtirilgan natijani kafolatlashi lozim. Shuning uchun ham o'qituvchilar maqsadni aniq belgilashga alohida e'tibor qaratishlari zarur. O'qituvchi o'zi o'qitadigan o'quv predmetini o'quvchilarni saviyasi va qiziqishlaridan kelib chiqqan holda didaktik jarayonning aniq loyihasini ishlab chiqsa, uni amalga oshirish osonlashadi.

Bolaning o'quv faoliyatini rivojlantirishda turli didaktik o'yinlardan foydalananish katta ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa boshlang'ich ta'limda o'quvchilar o'yin orqali o'z bilimlarini mukammallashtiradilar va uni chuqur o'zlashtiradilar. Shu jihatdan olib qaralganda , ta'lism jarayonida qo'llanadigan o'yinlarning o'rni beqiyosdir. Didaktik o'yinlar ta'lism jarayonida o'quvchilar faolligini oshiradi , bilim olishga qiziqishlari ortadi, qiyin bilimlar ham oson o'zlashtiriladi, eng muhimi o'qish motivlarini rivojlantiradi.Bu bilan esa barcha o'quvchilarni faollashtirish muammosi bartaraf etiladi va har bir o'quvchi o'z oldiga aniq maqsad qo'yib shu maqsadi sari ishonch bilan harakat qiladi . O'yinlar do'stona muhitni ham yaratadi . Har bir o'quvchi jamoadagi o'quvchilar bilan jipslashib harakat qilishi natijasida ular orasida o'zaro do'stona munosabat o'rnatiladi. O'zini va o'zgalarni hurmat qilishi o'rganadi.

Didaktik o'yinlar tashkil etish asosida ham o'qish motivlari muhim o'rni tutadi , ya'ni o'yin bu yangi bilimni oson egallahslari uchun bir turtki bo'ladi.

Didaktik jarayon o'zaro 3 komponentdan iborat.

- 1) Motivlar;
- 2) O'quvchilarni o'quv-bilish jarayoni;
- 3) Boshqarish;



Didaktik jarayonning samarali o'tishida motivlar muhim o'rinni tutadi. Qiziqib, aniq maqsad asosida egallangan bilim samarali bo'ladi.

Motiv--kishini biror ish-harakatni bajarishga undovchi da'vat, turtki. Shunday ekan o'qituvchi o'quvchida o'qish motivlarini o'stirish uchun ham darsni o'yin orqali tashkil etishi lozim.

Motiv bolada bilim olishga ishtiyoq uyg'otadi , o'qituvchi esa bundan mohirlik bilan foydalanib o'quvchilarga beriladigan mustaqil ishlar tizimini ishlab chiqadi. Natijada esa endi o'quvchi o'z ustida ishlab bilimini oshirishga harakat qiladi. Murakkab materiallarni ham o'rganishga , qo'shimcha adabiyotlarni o'qib darsga yanada puxta tayyorgarlik ko'rishga intiladi. Ayniqsa boshlang'ich sinf o'qituvchilari ta'lim jarayonini qiziqarli tashkil qilishlari , buning uchun esa pedagogik texnologiyalardan keng foydalanishlari shart va zarur. Bolaga maktab, qiziqarli darslar va undagi sog'lom muhit yoqsa , bu uning yanada chuqur bilim olishiga sabab bo'ladi.

Shu bilimlarga tayangan holda ular kelajakda o'z maqsadiga erishib, yurtiga foydasi tegadigan komil inson bo'lib yetishadilar. Komil inson tarbiyalash esa bizning bosh maqsadimiz hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1) H .T. Omonov, M. B. Xattabov . Pedagogik texnologiyalar va pedagogic mahorat . Toshkent „Iqtisod-moliya”2016

2) N. SH. Turdiyev . Boshlang'ich sinf. Dars ishlanmalari to'plami. Toshkent -2009